

"O'zbekiston aviatsiyasi yoshlari" forumi

2025 30 Sentabr

Uzbekistan Airways xodimlari Farg'onada bo'lib o'tgan

"O'zbekiston aviatsiyasi yoshlari" forumida ishtirok etdi. Tadbir Uzbekistan Airports, O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi va Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etildi.

Forum dasturi panel munozaralari, seksiya yig'ilishlari, umumiy ekskursiyalar va madaniy tadbirlarni o'z ichiga oldi. Ishtirokchilar Farg'ona xalqaro aeroporti faoliyati bilan tanishdi, Qo'qon, Rishton va Marg'ilon shaharlaridagi tarixiy-madaniy obyektlarga tashrif buyurdi.

Forumning asosiy voqealaridan biri urush qahramoni, sinov uchuvchisi, o'zbek aviatsiya maktabi asoschisi va Toshkent aeroportining birinchi direktori Abdusamat Taymetovga bag'ishlangan hujjatli filmning premyerasi bo'ldi.

Tadbir yakunida yoshlarning faol ishtirokida aviatsiya sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan taklif va tashabbuslarni o'z ichiga olgan "Yoshlar rezolyutsiyasi" qabul qilindi.









